O‘ZBEK MUMTOZ LIRIKASIDA RANG VA MAKONNING POETIK-SEMANTIK MUNOSABATI

Abdunazarova Sevara
Adabiyotshunos, tadqiqotchi, filolog
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23172814

Annotatsiya. Mazkur tezisda o‘zbek mumtoz lirikasida rang va makon kategoriyalarining o‘zaro poetik-semantik munosabati tadqiq etiladi. Shu bilan birgalikda asosan Alisher Navoiy, Bobur va keying davr namondalari ijodida kolorativ leksema va badiiy – semantik maydon o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi. Rangning ramziy-semantik qatlamlari qizil – ishq/ilohiy, sariq – hijron/xastalik, yashil – hayot/yangilanish, qora – go‘zallik/fojia, oq – poklik ma'nosida, makon obrazlari bog‘/gulshan, sahro, jannat/do‘zax, Ka'ba, ko‘ngul makoni bilan qanday o‘zaro ta'sirda bo‘lishi, lirik qahramonning ruhiy holatini va tasavvufiy-ma'naviy g‘oyalarni qanday ifodalashi ochib beriladi. Tadqiqot Yo. Is'hoqov, A. Hayitmetov, S. O‘tanova va boshqa navoiyshunoslar ishlari, shuningdek rang va makon poetikasiga oid zamonaviy tadqiqotlarga asoslangan. Natijada rang-makon munosabati mumtoz lirikada mustaqil poetik tizim sifatida shakllanganligi, u orqali majoziy va haqiqiy ishq, ruhiy kamolot va kosmik uyg‘unlik g‘oyalari chuqurlashgani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: mumtoz lirika, rang, makon, poetik semantika, rang timsoli, badiiy makon, ramz, timsol, xronotop, tasavvufiy semantika.

Kirish. O‘zbek mumtoz lirikasi (XV–XIX asrlar) Sharq poetik an'analarining yuqori bosqichini tashkil etadi. Unda rang va makon nafaqat tasviriy vosita, balki chuqur semantik, ramziy va falsafiy qatlamlarni tashuvchi poetik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Rang (qizil, sariq, yashil, qora, oq va boshqalar) lirik qahramonning ichki kechinmalarini, ishqning majoziy-haqiqiy qatlamlarini ifodalasa, makon (bog‘, gulshan, sahro, jannat, do‘zax, Ka'ba, ko‘ngul) bu kechinmalarning yuz berish maydonini, ruhiy-ma'naviy manzilgohini belgilaydi. Ularning o‘zaro munosabati poetik-semantik birlik hosil qiladi: rang makonni “bo‘yaydi”, makon esa rangning ramziy yukini kuchaytiradi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, rang simvolikasi (Yo. Is'hoqov, S. O‘tanova, N. Jumatova va boshqalar) va diniy-tasavvufiy makon (U. Ortikov va boshqalar) alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning tizimli poetik-semantik aloqasi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Maqolaning maqsadi – ushbu munosabatni mumtoz g'zaliyot va undan keyingi an'ana misolida ochib berish, uning semantik chuqurligini va badiiy funksiyasini aniqlashdir.

Badiiy matnda rang va makon tasviriy-estetik funksiyaga ega bo‘lgan muhim poetik kategoriyalardan sanaladi. Sharq she'riyatida tashqi borliq unsurlari ko‘pincha bevosita tasvirlash vositasi sifatida emas, balki muayyan ruhiy, falsafiy va irfoniy mazmunni ifodalovchi ramziy birlik sifatida qo‘llanadi. Shu jihatdan rang va makonning alohida-alohida semantikasini o‘rganish bilan bir qatorda, ularning matn tarkibida qanday munosabatga kirishishi masalasini tadqiq etish muhimdir. O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili Alisher Navoiy lirikasida ranglar tizimi nihoyatda serqatlam poetik xususiyatga ega. Tadqiqotlarda Navoiy g‘azallaridagi rang birliklari tashqi tasvir vositasi bo‘lish bilan birga, ruhiy holat, ramziy mazmun va tasavvufiy-falsafiy g‘oyalarni ifodalashi qayd etilgan. Shuningdek, zamonaviy navoiyshunoslikda makon kategoriyasiga ham tobora ko‘proq e'tibor

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

qaratilmoqda. Navoiy asarlaridagi bog‘, sahro, yo‘l, saroy, shahar kabi makonlar faqat geografik joyni bildirmasdan, ma’naviy kamolot, ruhiy safar, ijtimoiy munosabat va tarixiy xotira bilan bog‘liq poetik modellarni hosil qilishi ta’kidlangan. Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqotning asosiy masalasi rangning qanday makonda namoyon bo‘lishi va makonning rang vositasida qanday qo‘shimcha semantik mazmun kasb etishini aniqlashdan iborat.

Adabiyotshunoslikda badiiy makon asarda voqea sodir bo‘ladigan geografik hududning oddiy tasviri sifatida tushunilmaydi. U badiiy olamni tashkil etuvchi, obrazning ruhiy holatini ochuvchi va muallifning estetik munosabatini ifodalovchi strukturaviy unsurdir.

Makonning obyektiv va subyektiv shakllari mavjudligi haqidagi qarashlarga ko‘ra, badiiy makon bir tomondan real geografik hududni ifodalasa, ikkinchi tomondan qahramonning ruhiy dunyosi bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Rang esa mazkur makonni vizual jihatdan belgilash bilan birga, unga hissiy va ramziy mazmun yuklaydi. Masalan, bog’ ning oddiy yashil makon sifatidagi tasviri bilan yashil bog’ning poetik mazmuni bir xil emas. Rang makonning semantik chegaralarini kengaytirib, undagi kayfiyat, ruhiy holat yoki ramziy mazmunni kuchaytiradi.

Demak, rang va makon o‘rtasidagi munosabatni quyidagi poetik model orqali ifodalash mumkin:

MAKON → RANG → EMOTSIONAL HOLAT → RAMZIY MA’NO. Biroq mumtoz lirika kontekstida bu jarayon doimo bir yo‘nalishda kechmaydi. Ba’zan makonning o‘zi rangning ramziy ma’nosini belgilaydi: RANG → MAKON → RAMZIY KONTEXT.

Shu sababli rangning ma’nosini faqat lug‘aviy yoki umumiy ramziy xususiyatidan kelib chiqib belgilash yetarli emas.

Uning konkret makondagi qo‘llanishi ham hisobga olinishi lozim. Lutfiy lirikasida ham rang, makon va kontekst birligini kuzatish mumkin. Masalan, shoirning “Ayoqinga tushar har lahza gisu..” nomli g’azalida qora rang timsoli quyidagicha izohlanadi:

Ayoqinga tushar har lahza gisu
Maqoldurkim: “Chirog’ tubi qorong’u”

Ushbu misrada irsoli masal hamda tamsil san’atlaridan foydalanilgan holda go’zal o’xshatish namunasi keltirilgan. Chiroq atrofni yoritsada o’z tubining qorong’u bo’lishini keltirish orqali yozuvchi hammaga yordam berib, ziyo tarqatadigan insonlarga ishora qilgan desak mubolag’a bo’lmaydi. Shu asosda rang va makonning tasavvufiy munosabatini ham ikki qatlamda ko‘rish mumkin: zohiriy qatlam - real makon va uning rangli tasviri;

botiniy qatlam — rang va makon orqali ruhiy-ma’rifiy holatning ifodalanishi. Masalan, bog‘ oddiy tabiat makoni sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Ammo u gul, nur, rang va yor obrazlari bilan birikkanida ishqiy-irfoniy makonga aylanadi. Demak, rang makonning faqat “ko‘rinishi”ni emas, uning ma’naviy koordinatalarini ham belgilaydi. Rang–makon munosabatining poetik modellari.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. 20 jildlik mukammal asarlar to‘plami. 3–6-jildlar. – Toshkent: Fan.
2. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019. – 520 b.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 408 b.
4. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. Baxtin M.M.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.